




elita^{uz}

Elektron Ilmiy
Jurnal

No.1 (2)
2024

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li

ELEKTRON TIJORATNING MOHIYATI, RIVOJLANISH TARIXI VA MUAMMOLAR3-11

Olimjonova Hulkar To'liqin qizi

SUG'URTA KOMPANIYALARINING MILLIY FOND BOZORIDAGI FAOL ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRUVCHI HUQUQIY MEXANIZMLAR 12-20

Salimov Islombek Bobir o'g'li

O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATDA INTERNET-REKLAMA FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR. ILMIY TAHLIL 21-27

Xudoyorov Fayzullo Sayfulla o'g'li

MUSHARAKA VA MUDORABA: ISLOMIY MOLIYA VOSITALARI VA ULARNING O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDAGI ODDIY SHIRKAT SHARTNOMASIGA INTEGRATSIYASI 28-37

G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li

METaverse PLATFORMALARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING GLOBAL STANDARTI VA XALQARO HAMKORLIK 38-47

Razzaqova E'zoza Yusup qizi

RAQOBAT HUQUQIDA USTUN MAVQE TUSHUNCHASI 48-56

Allanazarova Xavajon Axmedovna

DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR TUSHUNCHASI VA ULARNING YURIDIK SHAXSLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI 57-64

Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li

FUQAROLIK VA IQTISODIY PROTSESSDA SHAFFOFLIK MUAMMOLARI 65-77

ELEKTRON TIJORATNING MOHIYATI, RIVOJLANISH TARIXI VA MUAMMOLAR

Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li | fabdihakimov@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “elektron tijorat” tushunchasining mohiyati, elektron tijorat sohasining rivojlanish tarixi va sohaning istiqbollari, elektron tijorat ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish, elektron tijorat sohasida yuzaga kelayotgan va huquqiy yechimini kutayotgan muammoli vaziyatlar hamda ularga tavsiyalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, ishtirokchilar, ommaviy oferta, sotuvchi va iste'molchilar huquqi, elektron raqamli imzo (ERI), MobilID.

THE NATURE OF ELECTRONIC COMMERCE, DEVELOPMENT HISTORY AND PROBLEMS

Abdihakimov Farhod Zafar ugli

Master's degree student of Tashkent State University of Law

Abstract. This article describes the essence of the concept of "e-commerce", the history of the development of the e-commerce industry and its prospects, the protection of the rights of e-commerce participants, the problematic situations that arise in the e-commerce industry and await legal solutions, and recommendations for them.

Key words: e-commerce, participants, public offer, seller and consumer rights, electronic digital signature (ERI), MobilID.

СУЩНОСТЬ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ, ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ И ПРОБЛЕМЫ

Абдихакимов Фарход Зафар угли

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье описаны сущность понятия «электронная коммерция», история развития отрасли электронной коммерции и ее перспективы, защита прав участников электронной коммерции, проблемные ситуации возникающие в сфере электронной коммерции и рекомендаций для них.

Ключевые слова: электронная коммерция, участники, публичная оферта, права продавца и потребителя, электронная цифровая подпись (ЭЦП), MobilID.

Kirish. Bugungi Yangi O'zbekistonda fuqarolik huquqiy munosabatlar jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Bu ayniqsa mamlakatimizda tobora o'z o'rnini topib borayotgan elektron tijorat sohasida o'z aksini topmoqda. Shu o'rinda so'nggi yillarda axborot texnologiyalari hamda global internet tarmoqlarining insonlar hayotiga ta'sirini ham inkor etib bo'lmaydi. Elektron tijorat esa tobora insonlar hayotining ajralmas bir qismi bo'lib bormoqda.

Hozirgi davrda har bir inson o'zi uchun imkon qadar qulaylik yaratishga intilmoqda. Bunda ular asosiy e'tiborini biror bir mahsulot sotib olishda oltinga teng bo'lgan vaqtini tejashga qaratishayotgan bo'lsa, tovar oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari imkon qadar kam xarajat qilgan holda ko'proq foyda olinadigan yo'nalishlarga qaratishmoqda. Shu o'rinda insonlarga elektron tijorat anchayin qo'l kelmoqda desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

So'nggi bir necha yil ichida elektron tijorat global chakana savdoning ajralmas qismiga aylandi. Boshqa ko'plab sohalar singari, tovarlarni sotib olish va sotish Internet paydo bo'lganidan so'ng jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va zamonaviy hayotning davom etayotgan raqamlilashuvi tufayli butun dunyodagi iste'molchilar endi onlayn tranzaksiyalarning afzalliklaridan foyda ko'rmoqda. Dunyo bo'ylab Internetga kirish va qabul qilish tez sur'atlar bilan o'sib

borayotgani sababli, butun dunyo bo'ylab besh milliarddan ortiq internet foydalanuvchilari bilan onlayn xaridlarni amalga oshiradigan odamlar soni tobora ortib bormoqda.

2022-yilda chakana elektron tijorat savdosi butun dunyo bo'ylab 5,7 trillion AQSh dollaridan oshdi va kelgusi yillarda bu ko'rsatkich yangi cho'qqilarga chiqishi kutilmoqda[1].

Shu sabali ham mamlakatimizda elektron tijorat sohasini huquqiy tartibga solish maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, xususan, 2022-yilning 29-sentabr sanasida O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun, 2019-yil 1-noyabrda qabul qilingan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonun, 2004-yil 29-aprelda qabul qilingan "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5598-son Farmoni hamda 2018-yil 14-maydagi "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3724-son qarorlari shular jumlasidandir.

Shubhasiz, tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan kech foydalanish imkoniyatini yaratish orqali masofalarning qisqartirilishiga, vaqt hamda mablag'ning tejallishiga erishilmoqda. Shuningdek, turli xildagi ish va xizmatlarni internet orqali amalga oshirish natijasida elektron tijorat, elektron to'lov tizimlari, elektron hisob-kitoblar kabi tushunchalari shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga kirib keldi.

Shu sababli ham elektron tijorat tushunchasiga alohida to'xtalgan holda, uning tub mohiyatini yoritishimiz zarur bo'ladi. Shuningdek, elektron tijorat ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar ham alohida ahamiyat kasb etib, bugungi kunda ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqayotgan nizoli holatlar ularni tadqiq etish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Bundan tashqari, elektron tijoratda sotuvchilarning soliq qonunchiligi sohasida ham qator huquqiy tartibga solinmagan vaziyatlarga duch kelayotganligi ham tadqiqot mavzuimizning dolzarbligini asoslaydi.

Metodlar. Elektron tijorat tushunchasiga birinchilardan bo'lib ta'rif bergan olimlardan biri bu amerikalik iqtisodchi Devid Koziedir. U mazkur tushunchaga

“Elektron tijorat – elektron tarmoqlardan foydalangan holda amalga oshiriladigan tadbirkorlik shakli”[2] deya ta’rif bergan.

Xuddi shu kabi bir qator olimlar tomonidan mazkur tushunchaga internet jahon tarmog’idan foydalangan holda faoliyat yuritishga asosiy urg’u berilgan, xususan, ulardan biri D.Eymor o’zining tadqiqotlarida “Elektron tijorat deganda internet orqali savdo qilish tushunilishi kerakligini”[3] ta’kidlagan bo’lsa, yana bir amerikalik olim P.Gerpi “Internet-texnologiyalaridan foydalanilgan iqtisodiy faoliyatning barcha turlari elektron tijoratdir”[4] deb e’tirof etgan.

Rossiyalik olimlardan I.Goldovski tomonidan “Tovarlariga buyurtmalarni internet orqali amalga oshiriladigan savdoning barcha shakllari elektron tijorat”[5] sifatida qayd qilingan bo’lsa, rossiyalik iqtisodchi O.A.Kobelev tomonidan esa “Elektron tijorat bu axborot ayirboshlash vositalaridan foydalangan holda operatsiyalar amalga oshirilgan tijorat faoliyati”[6] deb ta’rif berilgan.

Rossiyalik I.Uspenskiy tomonidan berilgan ta’rif nisbatan kengroq bo’lib, unga ko’ra “Elektron tijorat deganda elektron usullar bilan amalga oshiriladigan, nomoddiy ayirboshlash va jismoniy muloqotsiz amaliyot natijasida mulkka bo’lgan egalik huquqi yoki tovar (xizmat)dan foydalanishga bo’lgan egalik huquqining bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o’tishida yuzaga keladigan tijorat kelishuvlarining barcha shakllari”[7] tushuniladi.

Ko’rib turganimizdek, olimlar tomonidan asosiy urg’u internet jahon tarmog’idan foydalangan holda amalga oshiriladigan faoliyatga berilmoqda, biroq ba’zi olimlar tomonidan “elektron tijorat” tushunchasiga ta’rif berilayotganda asosiy e’tibor kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan faoliyatga qaratilgan. Xususan, rossiyalik olim A.V.Koren o’zining taqdiqotlaridan birida “Elektron tijorat deganda kompyuter tarmoqlari yordamida elektron shaklda amalga oshiriladigan tadbirkorlikning alohida shakli”[8] sifatida e’tirof etilgan bo’lsa, R.E.Xusnutdinov tomonidan berilgan ta’rifda “Elektron tijorat bu kompyuter tarmoqlari yordamida elektron shaklda kelishuvni tuzish va amalga oshirish faoliyati bo’lib, foyda olish maqsadida o’z tavakkalligi asosida amalga oshirilishi”[9] ko’rsatib o’tilgan.

“Elektron tijorat” tushunchasiga nafaqat olimlar tomonidan, balki xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ta’riflar berilgan. Ulardan biri bu Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) bo’lib, mazkur tashkilot tomonidan berilgan ta’rifga ko’ra elektron tijorat – bu tashkilotlar va jismoniy shaxslarning raqamli

axborotni qayta ishlash va uzatishga asoslangan tijorat faoliyatining barcha shakllari tushunilmog'i lozim[10]. Yana bir xalqaro tashkilot BMTning "Xalqaro huquq va savdo bo'yicha komissiyasining elektron tijorat to'g'risida"gi standart qonunidagi ta'rifga ko'ra "Elektron tadbirkorlik – bu elektron shaklda amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatining barcha shakllari bo'lib, uning tarkibiga tovar va xizmatlar oldi-sotdisi, faktoring, lizing, sanoat obyektlarini qurilishi, investitsiyalash, maslahat va bank xizmatlari, sug'urtalash va boshqalar kirishi"[11] qayd etilgan.

"Elektron tijorat" tushunchasiga mamlakatimizning "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunida ham ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra elektron tijorat bu – axborot xizmatlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati"[12]ga aytiladi.

Xorij mamlakatlarining qonunlarida ham "elektron tijorat" tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, xususan Kanada hukumati tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra elektron tijorat bu sotish va boshqa turli shartnomalarni telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda tuzish orqali tadbirkorlikni amalga oshirish hisoblanadi. Bular telefon, faks, kredit kartalari, debit kartalari, internet orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalardir.[13]

Yuqoridagi olimlarning ushbu tushunchaga bergan ta'riflaridan, shuningdek, empirik va etimologik yondashuvlardan kelib chiqib shuni aytishimiz lozimki, "elektron tijorat" tushunchasini keng va tor ma'nolarda tushunishimiz kerak. Keng ma'noda elektron tijorat tushunchasi deganda – bu elektron axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan har qanday iqtisodiy faoliyat tushinilishi kerak. Tor ma'noda esa bu internet jahon tarmog'i orqali foyda olish maqsadida tovar va ish (xizmat)lar savdosi bilan shug'ullanuvchi tijoriy faoliyatni anglashimiz zarur.

Shuningdek, biz "elektron tijorat" tushunchasidan tashqari "elektron savdo" va "elektron biznes" tushunchalariga ham duch kelamiz. Ushbu ikki tushunchadan "elektron savdo" tushunchasi tor ma'nodagi "elektron tijorat" tushunchasiga muvofiq keladi, chunki bunda asosan internet orqali tovar va ish (xizmat)lar oldi-sotdisi bilan shug'ullanish tushuniladi va unda an'anaviy savdodan farqli ravishda sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan amalga oshiriladigan barcha harakatlar elektron amalga oshiriladi. "Elektron biznes" tushunchasi esa keng ma'nodagi

“elektron tijorat” tushunchasiga muvofiq bo‘lib, bunda “elektron biznes” deganda foyda olishga yo‘naltirilgan har qanday tijoriy faoliyat tushuniladi.

“Elektron tijorat” tushunchasining yaralish tarixi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu XX asrning 60-yillar boshiga borib taqaladi va uning vujudga kelishi aviachiptalarning bron qilinishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Shundan so‘ng esa ushbu tushunchaning yanada rivojlanib ketishiga kompyuter tarmoqlarining yaratilishi, ma‘lumotlarni uzatish tizimlarining yaratilishi to‘lov kartalari va elektron to‘lov tizimlarining vujudga kelishi hamda eng asosiysi internet tarmoqlarining rivojlanib ketishi asosiy turtki bo‘lgan.

Natijalar. Yuqoridagi tahlillarimizdan ko‘rinib turibdiki, “elektron tijorat” tushunchasi o‘zida turli xil harakat va holatlarni mujassamlashtirgan. Mazkur tushuncha ostida nafaqat tadbirkorlik faoliyati harakatlari, balki, moliyaviy munosabatlar, bular aksiyalar savdosi, banklar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni ham birlashtirgan. Chunki, mazkur faoliyat ham bugungi texnologiyalar va internet davrida onlayn, ya‘ni kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalangan holda amalga oshirilmoqda. Bunda muhim jihat sifatida insonlarning hech qanday jismoniy harakatlarsiz elektron tijorat ishtirokchisi sifatida qatnashayotganligi e‘tirof etishimiz lozim. Bu esa o‘z o‘rnida vaqt, masofa va mablag‘larning tejaliishiga sabab bo‘lmoqda.

Ta‘kidlash lozimki, biznes jarayonlarida ishtirokiga ko‘ra elektron tijoratni 3 turga bo‘lish mumkin. Bular quyidagilar:

- B2B (Business to business) – bunda asosan tijoratchi tashkilot tomonidan sotuvchilar o‘rtasidagi elektron kelishuvlar va to‘lovlar tushuniladi;
- B2C (Business to consumer) – to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotuvchi va sotib oluvchi o‘rtasidagi kelishuv va to‘lovlar;
- B2G (Business to government) – tijoratchi tashkilot va davlat organlari o‘rtasidagi kelishuvlar.

Bugunki kunda B2C eng asosiy tovar va ish (xizmat)lar uchun kelishuvlar va to‘lovlar amalga oshiriladigan elektron tijoratning turi bo‘lmoqda. Negaki, internet tarmoqlarining rivojlanishi aynan sotuvchi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotib oluvchi o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga sabab bo‘ldi, Bu o‘z o‘rnida aynan shu yo‘nalishdagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish ahamiyatini yanada oshirdi.

Statistik ma‘lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, 2023-yilning boshida yirik tadbirkorlik subyektlarining kapitali 58,668.9 milliard so‘m (o‘sish sur‘ati –

131.8%)ni va kichik tadbirkorlik subyektlari va xususiy korxonalarning kapitali esa 217,163.0 milliard so'm (o'sish sur'ati – 107,5%)ni tashkil qilgan. Bu aynan elektron tijoratning B2C turi bo'yichadir.

2020-yilda elektron tijoratning o'zi 481,3 million AQSH dollari daromad keltirgan bo'lsa, bu mamlakatimiz raqamli daromadining 68%ini tashkil qilgan, qolgan 32%ini esa raqamli media sohasi, elektron xizmatlar hamda elektron sayohatlar tashkil qilgan. AQSH Savdo Departamentining Xalqaro savdo departamenti Statista sayti (dunyo elektron tijoratiga oid statistika va faktlar yuritiladigan sayt) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra 2025-yilgacha har yiliga 6,3%ga o'sadi.[14]

Statistik ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda elektron tijorat yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda. Birgina Uzummarket platformasida bugungi kunda 5000 mingdan ortiq sotuvchi mavjud bo'lib, bugungi kunga qadar ular tomonidan sotib oluvchilarga millionlab tovarlar yetkazib berilmoqda. Bu o'z o'rnida sohada huquqiy tartibga solinmagan ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltirib chiqarmoqda.

Munozara. O'zbekiston Respublikasi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni bevosita elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardan biri bo'lib, mazkur normativ-huquqiy hujjatda elektron tijorat munosabatlari ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari aniq qilib belgilab berilgan. Mazkur Qonunning 8-moddasiga asosan elektron tijoratda tovarlarni sotuvchi, xizmatlarni yetkazib beruvchi yoki ishlarni bajaruvchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, elektron tijoratda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xaridori, iste'molchisi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar elektron tijorat ishtirokchisi ekanligi belgilab qo'yilgan.

Ushbu huquq normasidan kelib chiqib, ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarni ham 3 guruhga bo'lishimiz mumkin, bular:

- sotuvchi va elektron savdo maydonchasi operatori o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar;
- elektron savdo maydonchasi operatori va xaridor o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar;
- sotuvchi va xaridor o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar.

Mazkur munosabatlardan sotuvchi va elektron savdo maydonchasi operatori o'rtasidagi hamda sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlarni

huquqiy tartibga solishning bir obyekti sifatida qaraydigan bo'lsak, qator o'z yechimini kutayotgan munosabatlar mavjud.

Ulardan biri bu elektron tijoratda but bo'lmagan tovarlarni, lozim darajada sifatli bo'lmagan tovarlarning yetkazib berilishi natijasida yuzaga kelayotgan munosabatlarni tezkor hal qilish masalasidir. Bunda qonunchilik normalarida belgilab qo'yilgan muddatlar ham sotuvchi ham xaridorning ortiqcha vaqtini hamda mablag'ini sarflanishiga sabab bo'lib qolmoqda. Tovarlarni, ishlar va xizmatlar elektron savdo maydonchalari orqali ortiqcha vaqt va mablag'larni sarflamagan holda sotilayotgan va sotib olinayotgan bir paytda, shuningdek, mazkur munosabatlar ortiqcha jismoniy harakatlarni talab qilmayotganida mazkur munosabatlar natijasida yuzaga kelayotgan nizolarni hal qilish ham unga mutanosib bo'lishi lozim. Shu sababli sotuvchi va xaridor o'rtasidagi ijtimoiy munosabat natijasida vujudga kelayotgan nizolarni elektron tarzda (onlayn) hal qilish imkonini beruvchi elektron platforma ishlab chiqish lozim.

Keyingi holat bu sotuvchi va elektron tijorat operatori o'rtasidagi ijtimoiy munosabat bo'lib, unga ko'ra taraflar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni belgilashda asosan bir taraf, ya'ni elektron tijorat operatorlarining huquq va majburiyatlari nisbatan ustun belgilanayotganligidir. Bunda sotuvchining huquq va manfaatlari ham o'z kafolatlariga ega bo'lishi kerak. Bu o'z o'rnida elektron tijorat operatorlarining javobgarlik masalasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, har bir soha va har bir yo'nalish o'z tarixiga ega bo'lgani kabi, elektron tijorat sohasiga o'zining vujudga kelish tarixiga ega. Shuningdek, "elektron tijorat" tushunchasi o'z o'rnida dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan har bir harakat va holatni inobatga olgan holda turlicha talqin qilinadi. Biroq, har bir talqin ostida bugungi davrda butun dunyo bo'ylab odamlar hayotiga kirib borgan Internet va kompyuter tarmoqlari yotadi. Mazkur ikki vositasiz bugungi kunda elektron tijoratni tasavvur etib bo'lmaydi. Shuningdek, elektron tijorat ishtirokchilari uchun yanada qulaylik yaratish uchun xizmat qiluvchi elektron raqamli imzo (ERI) va MobilID tizimlarini ham e'tirof etish lozim. Ushbu tizimlar elektron tijorat ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beruvchi tizimlar hisoblanadi. Shuningdek, elektron tijoratda vujudga kelayotgan ijtimoiy munosabatlarning har bir guruhida huquqiy tartibga solinishi lozim.

bo'lgan holatlar mavjud bo'lib, ulardan yuqorida qayd etilganlar shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.statista.com/topics/871/online-shopping/#topicOverview>
2. Козье Д. Электронная коммерция / Пер. с англ. М.: Издательско-торговый дом <<Русская редакция>>, 1999. С. 2.
3. Эймор Д. Электронный бизнес. Эволюция и/или революция. М.:Вильямс, 2001. 320 с.
4. Gary P. Electronic Commerce, Ninth Edition, Schneider, Ph.D., CPA. Printed in the United States of America, 2011. С. 4.
5. Голдовский И. Безопасность платежей в Интернете. СПб.: Питер, 2001. 240 с.
6. Кобелев О.А. Электронная коммерция: Учеб. пособие / Под ред. С.В.Пирогова. 3-е изд., перераб. и доп. М.: Издательско-торговая корпорация <<Дашков и К>>, 2008. 684 с.
7. Успенский И. Энциклопедия Интернет-бизнеса. СПб.: Питер, 2001. С. 61.
8. Корень А.В. Налогообложение субъектов электронной коммерции: проблемы и перспективы: монография. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2011.
9. Хуснетдинов Р.Е. Налогообложение реализации услуг в сфере электронной предпринимательской деятельности: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Хуснетдинов Руслан Евгеньевич. – М., 2014. – 168 с.
10. Хуснетдинов Р.Е. Налогообложение реализации услуг в сфере электронной предпринимательской деятельности: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Хуснетдинов Руслан Евгеньевич. – М., 2014. – 168 с.
11. Корень А.В. Налогообложение субъектов электронной коммерции: проблемы и перспективы: монография. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2011.
12. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi O'RQ-792-son "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni
13. Professor, DC in Law, Shukhrat Nuralievich Ruzinazarov and PhD in law Mokhinur Bakhramova Bakhramovna "Legal Regulation of E-Commerce Guarantees Digital Economic Development in Uzbekistan"
14. Madina Khushmurodova and Urazov Komil. "Trends and Problems of Development of Electronic Commerce in the Republic of Uzbekistan". Journal of Law and Sustainable Development. September 2023.